



## RELATIONS OF ASHTARKHANI RULERS WITH SCHOLARS

**Karimjon Nasrilloyev**

*Master's student*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Bukhara, Ashtarkhani, people of culture, science, library, madrasa.

**Abstract:** This article analyzes and discusses the relations of Ashtarkhani rulers with scholars.

**Received:** 11.10.22

**Accepted:** 13.10.22

**Published:** 15.10.22

## ASHTARXONIY HUKMDORLARNING ILM AHILLARI BILAN MUNOSABATLARI

**Karimjon Nasrilloyev**

*Magistrant*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### МАҚОЛА НАҚИДА

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Ashtarkoniy, madaniyat, ilm ahillari, kutubxona, madrasa.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ashtarkoniy hukmdorlarning ilm ahillari bilan munosabatlari tahlil va muhokama qilingan.

## ОТНОШЕНИЯ АШТАРХАНСКИХ ПРАВИТЕЛЕЙ С УЧЕНЫМИ

**Каримджон Насриллоев**

*магистрант*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Бухара, Аштарханы, деятели культуры, науки, библиотека, медресе. **Аннотация:** В данной статье анализируются и обсуждаются отношения Аштарханских правителей с учеными.

### KIRISH

XVII asr Buxoro xonligi hayotida siyosiy jarayonlar keskinlashgan davr edi. Bunda sulola vakillari o'rtaida o'zaro taxt uchun kurash kuchayib, iqtisodiy ahvol tang holatda kelib qolgan edi.

Shuningdek, xalq orasida hukmdor siyosatiga qarshi kuchlar va tashqi siyosatda ko‘chmanchi qabilalarning hujumi ortib borayotgan edi. Bu esa xonlikda ilm-fan va madaniyatning rivojiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Shunga qaramay, ashtarxoniy hukmdorlar Imomqulixon, Abdulazizxon va Subhonqulixon davrlarida ilm-fanning barcha yo‘nalishlari rivojlandi, Xususan, adabiyot, matematika, astronomiya va tibbiyot sohalarini shular jumlasidandir.

### ASOSIY QISM

Ashtarxoniy hukumdlarning dastlabki xonlari davrida Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol kuchsiz edi. Masalan, sulola vakillaridan Din Muhammad 1601-yilda vafot etgach, xonlik tepasiga Boqi Muhammad ibn Jonibek chiqadi. Bu hukmdor davrida xonlikda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda islohatlar o‘tkazgan bo‘lsa-da, bu ko‘zlangan natijani bermaydi. Ashtarhoniy Boqi Muhammad 1605-yilda bedavo kasallik bilan vafot etgach xonlik tepasiga ikkinchi Ashtarxoniy hukmdor Valimuhammad chiqadi. Bu hukmdor davrida Buxoro xonligida sezilarli ishlar amalga oshirilmagan. Buning asosiy sababi ko‘chmanchi qozoq qabilalarining xonlikka qarshi hujumlari va xonning aysh-u ishratga berilishi edi. Valimuhammad to‘g‘risida tarixchi Mirzo Salimbek o‘z asarida “may va ayollarga xirs qo‘ygan” deb yozadi. Valimuhammad 1611-yilda taxtdan tushurilgach, hukumdlilik tizginini Imomqulixon qo‘lga kiritadi. Ashtarhoniy Imomqulixon davrida Buxoro xonligi har tomonlama rivojlandi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o‘tkazgan islohotlari xalqqa manzur kelgan, Akbar Zamonovning “Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlar” asarida keltirgan ma’lumotlairga ko‘ra, Imomqulixon davrida mamlakatda biror marta ham isyon ko‘tarilmagan. Imomqulixon o‘zining 30 yillik boshqaruvi davrida faqat davlat ravnaqi uchun harakat qilgan. U ulamo va shoirlar suhbatidan lazzat topib, ilm-fan ahllariga ham homiylik qildi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar rivoji, ayniqsa, adabiyot, tarixshunoslik, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishlarida sezilarli bo‘lganligini ta’kidlaydilar. XVII asrning o‘rtalarida ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishda ijod qilgan yirik vakillardan biri Muhamadjon Yusuf Alqorabog‘iy(1563-1647) edi. U Kavkazning Qorabog‘ qishlog‘ida tavallud topgan. Ma’lumotlarga qaraganda mavlono Yusuf Qorabog‘iy Samarqandda ijod qilib Buxoroda vafot etgan, u adabiyot, astronomiya fanlarini yaxshi bilishi bilan bir qatorda she’rlar ham yozib turgan. Mavlono chindan ham o‘z davrining bilimli kishisi bo‘lganligi uchun Imomqulixonuning suhbatlarini xush ko‘rganligi manbalarda qayd etilgan.

Xon shoirlardan Turobiy va Nahliya hurmati baland edi. Shoир Nahliy hukmdorga atab madhiya yozadi va uning moddiy muruvvatidan bahramand bo‘ladi. Imomqulixon davrida xattotlik va musavvirlarga ham alohida e’tibor berilgan. Masalan, Hoji Muhammad musavvir bo‘lib, u 1642-yili Imomqulixon partretini chizgan.

Imomqulixon hukumronligining oxirlariga kelib ko‘zi ojiz bo‘lib qolgach, davlat boshqaruvini ukasi Nadir Muhammadga topshiradi. Ashtarxoniy hukmdor Nadir Muhammad (1642-1645)

akasining siyosatini davom ettiradi, biroq Buxoro xonligiga uning olib borgan siyosati sezilarli samara bermaydi. Hukmdor o'ziga nisbatan saroyda fitna uyushtirilayotganini eshitgach, 1645-yilda Balxga ketadi va hukmdorlik uzangasiga beshinchi Ashtarxoniy hukmdor Abdulazizzon chiqadi. Buxoro xonligi Abdulazizzon davrida barcha siyosiy sohalar kabi memorchilik, xattotlik va ilm-fanda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xon ilm ahllariga homiylik qilishi bilan bir qatorda uning o'zi ham o'z davrining ma'lumotli kishilaridan biri bo'lgan. Masalan, Abdulazizzon aniq fanlardan matematika sohasining o'tkir bilimdoni bo'lgan. Bu haqida o'sha davrda Eronga tashrif buyurgan polyak elchisi quyidagicha fikr bildirgan: "Abdulazizzon turli fan sohalarida, ayniqsa matematika sohasida olim odam bo'lgan". Xon saroyda olim-u fuzalolarni to'plab, ilmiy anjumanlar va adabiy kechalar o'tkazib turgan. Abdulazizzonning o'zi ham adabiy ijod bilan shug'ullanib turganligi uchun shoirlarga alohida e'tibor qaratgan. Shu davrda yashagan va o'zining xizmatlari bilan xonning nazariga tushgan shoirlardan biri So'fi Olloyor hisoblanadi. So'fi Olloyor (1644-1724) Kattaqo'rg'on va Denovda yashab o'tgan, o'z davrining barcha kerakli bilimlarini egallagan, ayniqsa fors va arab tillarini puxta bilgan. Uning "Murod ul-orifin" (Oriflar murod)i, "Maslak ul-mutaqqin" (Taqvodorlar maslagi), "Mahzan ul-mutsin" (Itoatkorlar xazinasi) asarlari forsiyda, "Sabot ul-ojizin" (Ojizlar saboti), "Favz un-hajot" (Najot tantasi) kabi asarlari esa turkiy tilda bitilgan. Uning yozgan asarlaridan madrasalarda darslik sifatida foydalanishadi.

Ashtarxoniy Abdulazizzon she'riyatni yaxshi ko'rgan va o'zi ham "Aziziy" taxallusi bilan ijod qilgan va go'zal she'rler yozgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Abdulazizzon zamondoshlaridan bo'lgan bir shoir xonning semizligi haqida istehzoli she'r yozgan. She'r mazmunidan xabar topgan Abdulazizzon shoirni chaqirtirgan. Bundan qo'rqib ketgan va xon qarshisida titrab turgan shoirga qarata u: "mening haqimda haqoratomus she'r yozganiningni eshitdim, boshqalar to'g'risida bunday dema, yo'qsa sening uchun og'ir bo'lur" degan, so 'ngra xon shoirga 10 ming dinor va to'n berishni amir qilgan. Bundan ko'rindiki hukmdorning shoirlarga nisbatan ehtiromi baland bo'lgan Xon ko'p kitob o'qishni yoqtirgan. Vengriyalik sayyoh va sharqshunos A. Vamberining yozishicha, Abdulazizzon doimo o'z yonida Imom al Buxoriyning asarlarini olib yurgan va ularni mutolaa qilishni yaxshi ko'rgan.

Buxoroda bu davrda xattotlik ham ma'lum ravnaqqa erishgan bo'lib, o'z davrining mashhur xattotlari faoliyat ko'rsatgan. Xususan, xatot Mavlono Xoji Yodgorni aytishimiz mumkin. U saroy kutubxonasida ko'plab kitoblarni ko'chirgan. Xattot Abdulazizzon topshirig'i bilan Hofiz Sheroziyning devonini qunt bilan 7 yil qayta ko'chiradi. Mavlono Xoji Yodgor ushbu xizmatlari uchun ham xonning e'tirofiga sazovor bo'lgan. Abdulazizzon nastaliq xatlarda yozishni maktub va insho mashqlarini zamonasining eng sara allommalaridan o'rgangan. Keyinchalik davlatda hukumdar bo'lgach Hindiston, Eron, Rumga xoh forsiy xoh turkiy tillarda noma bitilarkan ularni o'zi tahrir qilib, agar yoqmasa shaxsan o'zi yozish xolatlari ham bo'lgan. Yuqoridagi keltirilgan Abdulazizzon

to‘g‘risidagi malumotlardan ko‘rinib turibtiki, xon ilm fanni yaxshi bilganligi uchun ham mamlakatda turli fan sohalari rivojlandi va shunga munosib olim-u fuzalolarni faoliyatlar qullab-quvatladi. Abdulazizzon hukumdarligidan so‘ng mamlakatni ukasi Subhonqulixon boshqaradi. Subhonqulixon (1681-1702) davrida mamlakatda ilm-fanning barcha sohalari rivojlandi, xususan tarix, tibbiyot, astranomiya, adabiyot fanlari bo‘yicha ko‘plab olimlar ijod qilishgan. Masalan astranomiya va matematika fanlari bo‘yicha Mulla Tursun Faroziy, Mulla Nemat Samarcandiy, tarix fani rivoji uchun esa Muhamad Yusuf Munshiy, Mirmuhamad amin Buxoriy va Xoji Samandar Termiziylar o‘z ijodlari bilan xonning yaqin kishisiga aylanishgan. Dastlab Subhonqulixon saroyida, keyinchalik Balx hokumi Muquumxon hizmatida Munshiylik qilgan Muhamad Yusuf Munshiy o‘zining (“Tarixiy Muquumxoniy”) asari bilan xonning etirofiga sazovar bo‘lgan. Bu asarda Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoi-iqtisodiy hayoti yoritilgan, asarning uchinchi bobida esa davlat lavozimlari haqida gap boradi.

Mir Muhammad Amin Buxoriy Ashtarkoni Subhonqulixon va Ubayduloxon II davrida bosh munshiy lavozimida faoliyat ko‘rsatgan, keyinchalik hukumdar Subhonqulixon bilan munosabatlari yomonlashadi va olim saroydan haydaladi. Lekin Buxoro taxtnini Ubaydullaxon II egallagach yana saroya qaytariladi va hukumdorga bag‘ishlab “Ubaydullanova” asarini yozadi. Bu asarda Buxoro xonligining XVIII asrdagi ijtimoi-iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan.

Yana bir tarixchi va shoир Termiziy Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo (Samandar) (1638-1740) Ashtarkoniylar davrining yetuk tarixchi olimi, shoiri, ulamosi va davlat arboblaridan biridir. U Hindistonda darvesh sifatida kun kechirgan. 1670-yilda Buxoroga qaytib keladi. O‘zining zukkoligi sabab tez Abdulazizzon saroyida tarixchi lavozimiga tayinlanadi. Subxonqulixon humronligi davriga kelib, uning obro‘yi nihoyatda oshib ketadi. U hattoki, Buxoroga hujum qilgan Xiva xoni Anushaxon qo‘shinlari bilan janglarda qatnashib, jasoratlar ko‘rsatadi. Bundan tashqari Subxonqulixonning elchisi sifatida qo‘shni mamlakatlarga ham borgan. Masalan, u Subxonqulixon buyrug‘i bilan Samarcanddagi isyonkor hukmdor Xo‘jaquli bilan xonni yarashtirishga ko‘ndirish uchun ikki nafer vakil bilan muzokara olib borish uchun yuboriladi. Yuqorilardan ko‘rinib turibdiki Termiziy Xoja Samandar ashtarkoni Abdulazizzon va Subxonqulixon bilan munosabatlari ancha yaxshi bo‘lgan. Uning fors-tojik tilidagi “Dastur al-mulk” (Podshohlarga qo‘llanma 1695) asari Subxonqulixoniga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, u muqaddima va 22 bobdan tashkil topgan. Asar axloqiy talimiylar xususiyatga ega bo‘lib, unda davlatni boshqarish borasida hukmdorlarga qimmatli ma’lumotlar berilgan. Xoja Samandar Termiziy o‘z davrining eng o‘qimishli insonlaridan biri bo‘lgan. Malihoning bergen ma’lumotlariga ko‘ra Xoja Samandar Termiziy mashhur shoир va tarixchi bo‘lishi bilan birga ilohiyot ilmini ham yaxshi bilgan.

Subhonqulixon saroyda ko‘plab hakimlar bilan tabobat to‘g‘risida anjumanlar o‘tkazib turgan, xon nafaqat tibbiy bilimlimni balki astranomiya va sheriyatni yaxshi bilgan shaxs bo‘lgan. Shuning

uchun ham shoir va olimlar hukumdorning muruvatidan bahramand bo‘lishgan. Biroq xonning faoliyatini salbiy baholovchi shoirlar ham bo‘lgan, xususan, Buxoroning Yuz urug‘idan bo‘lgan Turdi Farog‘iy shular jumlasidandir. Shoir o‘zining hajviy sherlari orqali hukumdar va uning poraxo‘r amaldorlarini qoralaydi. Bu orqali xon va shoir o’rtasidagi munosabatlar ancha yomonlashgan.

## XULOSA

Xullas, ashtarkoniylar davrida ilm-fan va madaniyat ahliga bo‘lgan e’tibor, ular bilan hukmdorlar o’rtasidagi munosabatlar davr siyosatidan kelib chiqqan holda belgilangan. Vali Muhammad, Imomqulixon, Nadr Muhammad va Abulfayzxon davrida ilm ahliga bo‘lgan munosabat va e’tibor ancha sust bo‘lgan bo‘lsa, Abdulazizzon va Subhonqulixon davrida ilm ahli bilan yaxshi munosabat o’rnatilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sangirova D. Bir sulola shajarasi haqida. Sharq mash’ali T—2018. 25-b.
2. Mirzo Salimbek. Kashko‘li Salimi. Tavorixi muttaqaddimin va muttaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N. Yo‘ldoshev. Buxoro. Buxoro nashriyoti,2003. 276-b.
3. Akbar Zamonov, Farrux Subxonov. Buxoro xonligining ashtarkoniylar hukmdorlari. –T—2021. 41-b.
4. Muhammad Tolib. Matlab ut-tolibin. / fors tilidan tarjima, kirish va izohlar mualliflari G‘. Karimiy, E.Mirkomilov. T.:Movarounnahr, 2016. 209-b.
5. R.H. Murtazayeva. O‘zbekiston tarixi. “Yangi asr avlodi”. T.:2003. 308-b.
6. So‘fi Olloyor (1644-1724) // <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-she'riyati/o'zbek-mumtoz-adabiyoti/so'fi-olloyor-1644-1724>.
7. Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. 2-qism. T.: Info capital group, 2019. 133-b.
8. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq,2001. 273-b.
9. Qoraboyev U. Soatov G‘. O‘zbekiston madaniyati. Tafakkur-bo‘stoni, T.: 2011. 104-b.
10. B.J. Eshov, A.A. Odilov. O‘zbekiston tarixi. I—jild.(Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha). T—2013
11. Zamonov A. Subxonov F. Buxoro xonligining Ashtarkoniylar hukmdorlari. Bayoz. T.:2021.